

COLLECTION

Innovation, integration and modern
problems in the scientific activities of young
researchers and students: theory and
practice

www.d-pressa.com

31
MARCH



Jizzakh, Uzbekistan

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JIZZAKH BRANCH OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN
NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

SCIENTIFIC JOURNAL OF SCIENCE TECHNOLOGY & DIGITAL FINANCE
JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENCE NETWORKS

Innovation, integration and modern problems in the scientific activities of young
researchers and students: theory and practice collection of materials of the
international scientific and practical conference on the topic

(March 31, 2026)

Jizzakh-2026

Innovation, integration and modern problems in the scientific activities of young researchers and students: theory and practice – Jizzakh: Department of economics and tourism of Jizzakh branch of the national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, March 31, 2026, 790 pp.

Editors in charge: Ass.prof. Soy M.P.

In the collection of materials of the conference, the role and role of Science, Education and production in the era of globalization, the pressing problems of the issues of interaction of these processes, feedback on their solutions were presented by mature specialists of the field.

In addition, research on the scientific and practical topic, carried out in the economics, Exact Sciences, Natural Sciences and socio-humanities during the globalization period, information is presented in the scientific and practical fields, which includes the latest innovative technologies in the fields of production.

It can be argued that this collection is one of the specific intersections of current thoughts and innovative ideas of the world of science. This scientific and practical conference was actively attended by professors and scientific researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries. In increasing the position of the scientific and practical conference, the professors and teachers of domestic and foreign higher educational institutions made a significant contribution.

Professors and teachers of foreign higher educational institutions who actively participated in the work of the conference made a worthy contribution to the high level of interaction with scientists of our country. The processes of international cooperation with foreign countries and exchange with them in the field of Science in the era of globalization have a positive effect on the development of Higher Education, the fields of Science and production. The materials of this conference are special in that they include a wide range of research, from theoretical developments to practical solutions, demonstrating the diversity of approaches and directions in this area.

In conclusion, it should be noted that this scientific and practical conference will be a very useful collection for everyone who is interested in modern research in the fields of further development of Higher Education, Science, Education and production in the era of globalization. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

FILOLOGIK TA'LIMDA ONA TILINI RIVOJLANTIRISH VA LINGVISTIK SHAXSNI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK ASOSLARI

Mamanova Sayyora Faxriddinovna

O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali assistenti

e-mail: sayyoramamanova94@mail.com

Axmedova Aziza Alisher qizi

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabasi.

Annotatsiya: Maqola filologik ta'limda ona tilini rivojlantirish va lingvistik shaxsni shakllantirishning zamonaviy pedagogik asoslarini o'rganishga bag'ishlangan. Unda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar va ta'lim jarayonida til kompetensiyasini rivojlantirishning samarali yo'llari tahlil qilinadi. Filologik ta'lim orqali o'quvchilarda ona tilining madaniy va badiiy boyligi, nutq madaniyati hamda ijodiy fikrlash qobiliyati shakllantiriladi. Shuningdek, maqolada lingvistik shaxs tushunchasi, ta'lim jarayonidagi til kompetensiyasi va talabalarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi muhim nazariy va amaliy jihatlar sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: filologik ta'lim, ona tili, lingvistik shaxs, til kompetensiyasi, pedagogik texnologiyalar, nutq madaniyati.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan davrda mamlakatimizda huquqiy va demokratik jamiyatni barpo etish yo'lida keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlar nafaqat siyosiy va iqtisodiy sohalarda, balki ta'lim va ishlab chiqarish tizimlarida ham sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Zotan, jamiyatning bugungi va kelajakdagi rivojlanishi, uning madaniy, ma'rifiy va ma'naviy salohiyati asosan ta'lim tizimi va ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, pedagogning asosiy vazifasi nafaqat bilim berishdan iborat emas, balki talabalarda dunyoqarashni kengaytirish, tanqidiy tafakkur va ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishdir. Bugungi kunda muvaffaqiyatli o'qituvchi ilmiy va amaliy jihatdan bilimli, mustaqil fikrlay oladigan, doimiy ravishda o'z ustida ishlaydigan va o'rganishga intiluvchi shaxs bo'lishi zarur. U shuningdek o'z faoliyatida ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini samarali qo'llay oladigan ijodkor shaxs sifatida talabalarning shaxsiy va kasbiy salohiyatini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Shu bilan birga, o'qituvchi yoshlarning qalbiga chuqur kirib borish, ularni kasbga qiziqтира olish va yuqori ma'naviy fazilatlarga ega shaxslar qilib tarbiyalash imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Ona tilini rivojlantirish masalasi bugungi kunda ham ustuvor ahamiyatga ega. Shu jihatdan, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Davlat tili masalasi milliy g'oyamizning asosiy tamoyillaridan biri bo'lishi zarur. Yosh avlod qalbiga ona tilimizni bolalikdan singdirish maqsadida ta'limning barcha bosqichlarida o'zbek tilini zamonaviy va innovatsion texnologiyalar asosida mukammal o'rgatishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Toki, bolalarimiz o'zbek tilida ravon o'qiydigan, ravon yozadigan va teran fikrlaydigan insonlar bo'lib

yetishsin”[1]. Shu maqsadda, ta’lim muassasalaridagi o’quv jarayonlarini zamonaviy talablar asosida qayta tashkil etish va tayyorlanayotgan o’rtabosqich mutaxassislarining malakasini raqobatbardosh darajaga yetkazish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Akademik litsey va kasb-hunar maktablarida ona tili fani umumiy o’rta ta’lim maktablaridagi ona tili fanining uzviy davomi sifatida olib boriladi. Bu fan o’quvchilarga umumiy o’rta ta’lim davomida olingan bilim, ko’nikma va malakalarni tizimlashtirish, xulosalar chiqarish va ularni amaliyotda qo’llash imkonini beradi. Shu bilan birga, akademik litsey va kasb-hunar kollejarida ta’lim olayotgan o’quvchilarning bilimini baholash va baholashning turli usullarini aniqlash hamda qo’llash muhim pedagogik vazifalardan biridir.

Bugungi kunda davlat tiliga e’tibor kuchaygan va uni rivojlantirishga qaratilgan ishlar samarali tarzda olib borilmoqda. Bu sohada bir qator qarorlar va farmonlar qabul qilingan. Jumladan, 2019-yil 21-oktabrda qabul qilingan “O’zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Prezident farmoni asosida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi. Farmonda o’zbek tilining yozma nutqi me’yorlari va qoidalarini ishlab chiqish, lotin yozuviga asoslangan alifboni to’liq joriy etish, ilmiy asoslangan yangi so’z va atamalarni joriy qilish, geografik va boshqa toponimik obyektlarga qonuniy nom berish, shuningdek davlat tilini rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlari hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi vazifalar belgilangan [2]. Bu esa ona tilini o’quvchilarga mukammal o’rgatish va yangi so’z hamda atamalarni faol qo’llashni ta’minlashga xizmat qiladi.

2020-2030-yillarda amalga oshiriladigan til siyosati va ona tilini rivojlantirish dasturida ta’lim muassasalarida davlat tilini o’rgatish va uning bilish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish, davlat tilining ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish, tilning sofligini saqlash, nutq madaniyatini rivojlantirish va qoidalar buzilishining oldini olish kabi chora-tadbirlar ko’zda tutilgan. Shu orqali o’quvchilarning ona tilida bilim, ko’nikma va madaniy salohiyati shakllantiriladi, ularning lingvistik shaxs sifatida rivojlanishi ta’minlanadi [2].

Bugungi ta’lim tizimida ta’limning asosiy maqsadi va kasb-hunar ta’limida o’quvchilarni o’qitishning vazifalari tubdan o’zgardi. Jamiyat faoliyati markazida shaxs turadi va lingvistik shaxs tushunchasi joriy etildi. Shu nuqtai nazardan, o’quvchilar tilni qanchalik bilishi emas, balki u bilan nima qila olishi va qanday foydalana olishi muhim hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim tilni inson ongi, tafakkuri va uning madaniy-ma’naviy hayoti bilan chambarchas bog’liq holda o’rganishni nazarda tutadi.

Filologik ta’lim o’quvchining lingvistik shaxsini shakllantirishning asosiy jihati bo’lib, u o’quvchini til tashuvchisining doimiy prototipi sifatida, til orqali ifodalangan shaxs sifatida ko’rib chiqadi. Shu yo’l bilan filologik ta’lim ona tilida so’zlashuvchi kishining mentalitetini, milliy-madaniy o’ziga xosligini shakllantiradi, shuningdek, o’quvchilar va o’qituvchilarning shaxsini kamol toptirish, ma’naviy-axloqiy yuksalish uchun sharoit yaratadi. Filologik ta’lim orqali

o‘quvchilar badiiy so‘zning go‘zalligi va boyligi bilan tanishadi, ona tilining barcha imkoniyatlarini egallash va o‘zini anglash qobiliyatini rivojlantiradi.

Lingvistik shaxs – bu til orqali fikr bildiradigan, madaniy va ijtimoiy faoliyatda ona tilidan samarali foydalanadigan shaxsdir. Filologik ta’limning asosiy vazifasi talabaning lingvistik shaxs sifatida shakllanishini ta’minlashdir. Bu jarayonda quyidagi pedagogik yondashuvlar muhim hisoblanadi:

1. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: interfaol metodlar, masalan, loyiha ishlari, muhokama va rol o‘yinlari o‘quvchilarda tilni amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

2. Nutq madaniyati va badiiy ifoda: o‘quvchilarga ona tilining badiiy va ma’naviy boyliklarini o‘rgatish, ularning ijodiy fikrlashini rag‘batlantirish, til orqali o‘z fikrini aniqlik bilan ifodalash qobiliyatini shakllantirish.

3. Lingvistik va madaniy kompetensiyalarni integratsiyasi: til bilimni madaniyat, tarix va adabiyot bilan bog‘lash orqali talaba ona tilining jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini chuqurroq anglaydi. Shu bilan birga, lingvistik shaxsni shakllantirish jarayoni doimiy monitoring va baholash orqali qo‘llab-quvvatlanadi. O‘quvchilarning tilga qiziqishi, nutq madaniyati va ijodiy salohiyatini baholash tizimi pedagogik jarayon samaradorligini oshiradi. Filologik ta’lim orqali o‘quvchilar ona tilining barcha imkoniyatlarini o‘zlashtiradi: yozma va og‘zaki nutq, adabiy tahlil, ijodiy yozuv va og‘zaki ifoda. Shuningdek, filologik ta’lim milliy madaniyat va ma’naviyatni rivojlantirish, o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy filologik ta’limning amaliy ahamiyati shundaki, u o‘quvchilarga ona tilida fikr bildirish, turli matn turlarini tahlil qilish va ijodiy loyihalar yaratish imkonini beradi. Bu jarayon orqali lingvistik shaxs shakllanadi va o‘quvchilar til orqali o‘zini anglaydigan, fikrini aniq yetkaza oladigan, milliy va madaniy qadriyatlarni qadrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalanadi. Natijada, filologik ta’lim va zamonaviy pedagogik texnologiyalar birgalikda ona tilini rivojlantirish va lingvistik shaxsni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Shu yo‘l bilan o‘quvchilar nafaqat tilni biluvchi, balki uni ijodiy va amaliy jihatdan to‘liq egallagan shaxs sifatida shakllanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy dunyoda filologiya jamiyat tomonidan yuqori talabga ega bo‘lib, maktablarda filologik ta’limni modernizatsiya qilish va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Natijada, tilning turli shakllarida so‘zlasha oladigan, fikrini ravon yetkazadigan, g‘oyani aniq tushuntira oladigan shaxslarni tarbiyalash mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi 21.10.2019
2. “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Toshkent sh., 2019-yil 21-oktabr, PF-5850-son
3. Abdurahmonova S. Ona tili darslarida o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantiruvchi zamonaviy pedtexnologiyalardan foydalanish usullari. —Ta’lim

jarayonida yozma savodxonlikni oshirishning asosiy omillari. O‘TDA yig‘ini materiallari. Toshkent. 2015-yil. 351-353-betlar.

4. B.To‘xliyev, M.Shamsieva, T.Ziyodova. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, 2010 yil
5. Begmatov E., Boboyeva A., Asomiddinova M., Umurqulov B. O‘zbek nutqi madaniyati ocherklari. – Toshkent: Fan, 1988.
6. Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek adabiy tilining leksik normalari. Nutq madaniyatiga oid masalalar. –Toshkent: Fan, 1973.
7. S.Ashurova, S.Mamanova WAYS TO DEVELOP SPEAKING ACTIVITY OF VOCATIONAL SCHOOL STUDENTS “International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research” ISSN - 2181 3884. 2023
8. Маманова С. Методика развития речевой компетентности у студентов профессионально-технических учебных заведений //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 4
9. Bahodir o‘g‘li U. B. et al. Axborot xavfsizligini ta‘minlash va uni rivojlantirish //Partner conferences of the International Scientific Journal Research Focus. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 294-297.
10. Faxriddinova M.S. Professional ta‘lim o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatida nutqiy kompetensiya va nutqiy odob qoidalarining ahamiyati //kasb-hunar ta‘limi mundaжи. – с. 54.
11. Mamanova S. Professional ta‘lim muassasalari o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyasini baholashda matnli materiallarning didaktik ahamiyati //Scientific practical conference. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 199-202.
12. Kamolov D. ON THE WAY TO THE DIGITAL EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN. – 2023.
13. Цой М. П., Эшонкулов Т., Касимова Д. П. Реформы в сфере образования Республики Узбекистан //Гуманитарные науки в XXI веке. – 2014. – №. 18. – С. 210-213.
14. Цой М., Иброхимов Ш. СОВРЕМЕННАЯ СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 24-28.
15. Цой М. П., Ибрагимов З. Т. ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 339-342.
16. Saitov S. et al. ZAMONAVIY FILOLOGIYA FANLARIDAGI DOLZARB MASALALAR //Scientific practical conference. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 419-422.
17. Убайдуллаева В. Фанларни ўқитишда инновацион ёндашув //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 134-137.
18. Цой М., Камолов Д. ЗНАЧЕНИЕ И РОЛЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ЭКОНОМИКЕ: МИРОВОЙ ОПЫТ И ПРАКТИКА УЗБЕКИСТАНА //Academic literature. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 1-105.